

# MUSIQA MADANIYATI DARSLARI JARAYONIDA SHAXS KAMOLOTINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK JIHLTLARI

**Asilbek Zoidov,**  
JDPI 2-kurs magistri,  
**E.M.Fayzullaev,** ilmiy rahbar.  
JDPI “Musiqqa ta’limi”  
kafedraasi dotsenti v/b, p.f.n.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bo‘lajak musiqqa o‘qituvchilarini maktab ta’limiga tayyorlashga sinfdan tashqari faoliyatga - badiiy havskorlik to‘garaklar ishiga e’tiborini kuchaytirish bu jarayonada ularni mustaqil va ijodiy ishlashlari uchun zarur shart sharoitlar yaratishi haqida so‘z yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Salohiyat, samarali mehnat, madaniyatlilik, yuqori malaka, yuksak onglilik, ijodkorlik, jamiyat oldidagi mas’uliyatini

Mustaqil O‘zbekistonning kelajagi ko‘p jihatdan barkamol salohiyatli yosh avlodni tarbiyalashga bog‘liq. Ana shunday dolzarb vazifani amalga oshirish uchun o‘zbek xalqining ta’lim-tarbiyaga oid boy tarixiy tajribasini o‘rganish va uni yangi zamon kishisini shakllantirish hamda tarbiyalashda hayotga amaliy tadbiiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning sa’yi harakatlari bilan O‘zbekiston Res’ublikasini “2017–2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”ni hayotga tadbiiq etish lozimligi zamon talabi bo‘lib qolmoqda. Mazkur “Harakatlar strategiyasi” har birimizdan harakat va mas’uliyatni talab qiladi. Shundan kelib chiqqan holda “Harakatlar strategiyasi”ning maqsadi olib borilayotgan islohotlar samaradorligini tubdan oshirishdan, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishini ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratishdan, mamlakatni modernizatsiyalash va hayotning sohalarini erkinlashtirishdan iboratdir.

Istiqlol adabiyotining buyuk vakillaridan Abdurauf Fitrat shunday degan edi: ”Agar dinga, Vatanga, molg‘a-jong‘a, avlodg‘a muhabbatingiz bo‘lsa, agar dinning xalos bo‘lishi, shariatning rivoji, Vatan obodligi, avlodning tinchligi, yaxshi nom qoldirishning chorasini xohlasangiz, sizning ilojingiz,

avvalo, kasbi maorifdir. Qobiliyatlilarni tahsil uchun o‘qishga yuboring”. Ushbu iqtibosda buyuk allomaning millat va vatan kelajagi, yoshlar ta’lim-tarbiyasi uchun qanchalar kuyunchaklik bilan yondashganini ko‘rishimiz mumkin.

Hozirgi yangilanayotgan jamiyatning rivojlanishi insonni tarix, madaniyat va o‘z hayotining ob’ekti sifatida bilishni shakllantirish va rivojlantirish imkoni vujudga kelgan bir sharoitda “inson – ijodkor shaxs” sifatida baholanmoqda. Insonga jamiyatning mavhum bir zarrasi sifatida emas, balki dunyoni o‘zgartiradigan qudratli kuch, ijodkor, erkin shaxs sifatida munosabatda bo‘lishni talab etmoqda. Ana shunday yondashish insonni to‘laqonli ya’ni zamon talabi darajasida rivojlangan inson-mutelikdan, ma’naviy qashshoqlikdan holi bo‘lgan Vatan, millat va davlat manfaati yo‘lida faoliyat ko‘rsatuvchi shaxs sifatida kamolga yetishga olib keladi.

Komil inson deganda biz avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, hulq atvor bilan o‘zgalarga ibrat bo‘ladigan bilimli, ma’rifatli kishilarni tushunamiz... Ma’lumki, barkamol inson deganda ham aqliy ham ahloqiy, ham jismoniy kamol topgan shaxs tushuniladi. Ta’lim-tarbiyaning maqsadi ham har jihatdan barkamol shaxsni shakllantirishdan iborat. Zero, “barkamol” so‘zining lug‘aviy ma’nosi ham kamolga erishgan, kamol topgan, bekam-u ko‘st, yetuk, har jihatdan mukammal deganidir. Hozirgi davrdagi o‘zgarishlar har bir kishidan bilim, salohiyat, samarali mehnat, madaniyatlilik, yuqori malaka, yuksak onglilik, ijodkorlik, jamiyat oldidagi mas’uliyatini his etishni talab etadi.

Insonparvar, demokratik mustaqil davlat qurishda, har bir inson, har bir inson ana shu xislatlarga ega bo‘lgandagina jamiyatni rivojlantirish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Eng qadimgi zamonlardan boshlab barkamol insonni shakllantirishning mezoni sifatida:

- Aqliy yetuklik
- Ma’naviy yuksalish
- Jismoniy yetuklik
- Nafosat tarbiyasi belgilangan

San'at va madaniyatdek qudratli kuch orqali inson qalbiga yo'l topish haqida so'z yuritar ekanmiz, hammamiz yaxshi tushunamizki, har qaysi iste'dod egasi o'ziga xos bir olam. Shu sababli ijod ahliga qandaydir aql o'rgatish, eng asosiysi, ularni boshqarishga urinish mumkin emas. Lekin bu hayotda ularni birlashtiradigan, yangi ijodiy marralar sari ilhomlantiradigan muqaddas tushunchalar borki, ular vatan va xalq manfaati, ezgulik va insoniylik tamoyillari bilan uzviy bog'liqdir. Agarki har qaysi ijodkor o'z asarlarida ana shu o'lmas g'oyalarni bosh maqsad bilan qo'ysa, ularni badiiy mahorat bilan ifoda eta olsa, hech shubhasiz adabiyot ham, madaniyat va san'at ham tom ma'noda ma'naviy yuksalishga xizmat qilib, o'zining ijtimoiy vazifasini to'liq ado etishgan bo'ladi.

Barchamizga ayonki kuy qo'shiqqa, san'atga muhabbat, musiqa madaniyati xalqimizga bolalikdan boshlab oilada shakllanib boradi. Uyda dutor, doira yoki boshqa cholg'u asbobi bo'lmagan, musiqaning hayotbaxsh ta'sirini o'z hayotida sezmasdan yashaydigan insonni bizning yurtimizda topish qiyin desak mubolag'a bo'lmaydi. Eng muhimi bugungi kunda musiqa san'ati navqiron avlodlarimizning - biz yoshlarning yuksak ma'naviyat ruhida kamol topishimizda boshqa san'at turlariga qaraganda ko'proq va kuchliroq ta'sir ko'rsatmoqda. Bu masalada ayniqsa biz yoshlar qalbini o'ziga har tomonlama jalb etadigan estrada san'atining ahamiyati beqiyosdir.

Ma'naviyatni shakllantirishga bevosita ta'sir qiladigan yana bir muhim omil - bu ta'lim-tarbiya tizimi bilan chambarchas bog'liqdir. Ma'lumki, otabobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ilmu ma'rifat, ta'lim - tarbiyani inson komoloti va millati ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan. Xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi biz farzandlarning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishimizga bog'liq. Kelajagimiz poydevori biz ta'lim olayotgan bilim dargohlarida yaratiladi. Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi.

Musiqa - o'z tabiatiga ko'ra hissiy va ruhiy kechinmalar uyg'otuvchi, kishilarda nozik didni tarbiyalovchi, ham tinglovchini, ham ijrochini nafosatga,

ma'naviy barkamollikka undovchi kuchli vositadir. Musiqaning ana shu tarbiyaviy kuchidan foydalanish, yosh avlodning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirish, ularda ro'y berayotgan o'zgarishlar umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi barcha o'quv predmetlari qatorida musiqa darslarining o'qitilishi bugungi kunda sohaning yanada takomillashtirilishini taqozo etmoqda.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini maktab ta'limiga tayyorlashga sinfdan tashqari faoliyatga - badiiy havskorlik to'garaklar ishiga e'tiborini kuchaytirish bu jarayonada ularni mustaqil va ijodiy ishlashlari uchun zarur shart sharoitlar yaratish. Aynan manna shu faoliyat talabalarning o'z ustida mustaqil ishlash, izlanish va erishgan yutuqlarini keng jamoatchilik oldida namoyish qilishga bo'lgan intilish va qiziqishlarini ro'yobga chiqarishda muhim rol o'ynaydi.

Ta'kidlab o'tilgan muammolarning ijobiy yechimiga erishish bo'lg'usi musiqa o'qituvchilarining maktab faoliyatiga kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish bilan umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa, o'z navbatida barkamol avlodni tarbiyalash, milliy-manaviy, musiqiy-estetik madaniyatini shakllantirishning yanada yuqori darajaga ko'tarilishiga va shu orqali jamiyatimizning ma'naviy - ma'rifiy negizini mustahkamlash borasida olib boriladigan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda yangi ufqlar ochadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. I. Karimov. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T;- Ma'naviyat. - 2008 yil.
2. Sh.M.Mirziyoev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.O'. 2017.
- 3.A.Asqarov. O'zbekistan tarixi (eng qadimgi davrdan eramizning V asrigacha). - T.: O'qituvchi, 1994. - 64 b.
- 4.F.M.Karomatov. Xalq musiqasi //O'zbek muziqasi tarixi. Tuzuvchi: T.Ye.Solomonova. - T.: G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981. 27 34-6.
- 5.Fitrat. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. - T.: Fan, 1993.-56 6.
- 6.H.Nurmatov. Musiqa va estetik madaniyat //Musiqa o'qituvchilari uchun metodik tavsiyalar. T.: Nizomiy nomidagi TDPI, 1992. -3 6.
- 7.E.M.Fayzullaev "Bo'lajak musiqa o'qituvchilari badiiy didini shakllantirishda o'zbek mumtoz musiqasi imkoniyatlaridan foydalanish",

(metodik qoʻllanma). Toshkent 2008.